# Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 142205 на приобретение Дехконобод тумани 93-сонли мактаб биносини таъмирлаш

Способ проведения электронный

Дата 08.09.2022

Время рассмотрения 07.09.2022 15:15

Закупочная комиссия Дехконобод туман Халк таълими булими, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | YUSUPOV BAXTIYOR MAVLONOVICH | Халк таълим бўлими мудири | Халк таълим бўлими |
| **Секретарь комиссии** | QAYUMOV NURMUXAMED YULDASHOVICH | Мутахассис | Халк таълим булими |
| **Член комиссии** | IBRAGIMOV MAVLON MENGLIMURODOVICH | Курилиш буйича мутахассис | Халк таълим булими |
| **Член комиссии** | DO‘SANOV DAVRON ABDIRAHMATOVICH | Шартнома булими бошлиги | Халк таълим булими |
| **Член комиссии** | ODINAYEV XAYRULLA JUMAYEVICH | Бош хисобчи | Халк таълим булими |
| **Член комиссии** | XAZRATOV UMID OMONQULOVICH | Мутахассис | Халк таълим булими |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 08.09.2022 года № лота 142205.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 56

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по текущему ремонту зданий** |
|---|---|
| Подробное описание | Дехконобод тумани 93-сонли мактаб биносини таъмирлаш |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 24 250 000.00 |
| Стартовая сумма | 24 250 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Машина ва механизмлар рўйхати

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **NURMATOV DESIGN STROY** | 25 | Машина ва | 15 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **MCHJ** | | механизмлар рўйхати | | | | |
| **Muhriddin Alisherovich x/k** | 25 | 23037500 | 17 | Экспертная | | |

Критерий №2 Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотнома (Низом ва гувохномадан, таъсисчи ва рахбарнинг паспорт нусхалари, СТИР рақамлари)

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **NURMATOV DESIGN STROY MCHJ** | 25 | Низом ва гувохномадан, таъсисчи ва рахбарнинг паспорт нусхалари, СТИР рақамлари | 15 | Экспертная | | |
| **Muhriddin Alisherovich x/k** | 25 | 23037500 | 16 | Экспертная | | |

Критерий №3 Кафолат хати булиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **NURMATOV DESIGN STROY MCHJ** | 25 | Кафолат хати | 16 | Экспертная | | |
| **Muhriddin Alisherovich x/k** | 25 | 23037500 | 17 | Экспертная | | |

Критерий №4 Банк ва соликдан карзи йуклиги тугрисида

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **NURMATOV DESIGN STROY MCHJ** | 25 | Банк ва соликдан карзи йуклиги тугрисида | 16 | Экспертная | | |
| **Muhriddin Alisherovich x/k** | 25 | 23037500 | 17 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Muhriddin Alisherovich x/k** | 24 250 000.00 | 23 037 500.00 UZS | 23 037 500.00 | 00.00 | 23 037 500.00 | 31.08.2022 11:13:12 | 26.04 |
| **NURMATOV DESIGN STROY MCHJ** | 24 250 000.00 | 20 000 000.00 UZS | 20 000 000.00 | 00.00 | 20 000 000.00 | 29.08.2022 23:36:45 | 30 |

**Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей**

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **Muhriddin Alisherovich x/k** | 46.9 | 26.04 | 72.94 |
| **NURMATOV DESIGN STROY MCHJ** | 43.4 | 30 | 73.4 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 142205 от 08.09.2022 года на приобретение Дехконобод тумани 93-сонли мактаб биносини таъмирлаш определила победителем:

NURMATOV DESIGN STROY MCHJ
309702005

и резервный исполнитель: Muhriddin Alisherovich x/k (300880038)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | YUSUPOV BAXTIYOR MAVLONOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | IBRAGIMOV MAVLON MENGLIMURODOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | DO‘SANOV DAVRON ABDIRAHMATOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ODINAYEV XAYRULLA JUMAYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | XAZRATOV UMID OMONQULOVICH | Согласен | Пудратчи ташкилот томонидан танловга киритилган хужжатлар комисия аъзолари томонидан бирма бир кўрилди ва холис бахо берилди . |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

PUDRAT SHARTNOMASI

15«9»2022 yil. 85-4-57-XT/2022-son

Dehqonobod Tuman Xalq ta'limi nomidan (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) harakat qiluvchi ma'sul xodim B.Yusupov bir tomondan va "NURMATOV DESIGN STROY" MCHJ nomidan (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) harakat qiluvchi J.G'afurov ikkinchi tomondan, 93-maktab binosini joriy tamirlash to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: loyixa-smeta xujjatlari asosida (Loyixa-smeta xujjatlardan chiqish xolatlar mavjud bo'lsa Pudratchi tomonidan bajargan ta'mirlash ishlari xisobatga olinmaydi), Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi 20 000 000 so'mni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma bahosi o'z ichiga quyidagilarni oladi: 20 000 000 so'm.

2.3. Shartnomaning 2.1-bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 30% avans va ish yakunlanib qabul qilinganidan so'ng 10 kun ichida qolgan 70% to'lanadi.

3.2. To'lov shakli: pul ko'chirish yo'li bilan.

3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, 10 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2. Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi: 30% avans va ish yakunlanib qabul qilinganidan so'ng 10 kun ichida qolgan 70% to'lanadi.

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi 2022-yil 20-sentiyabr

Tugashi 2022-yil 11-oktiyabr

## 5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish;

ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash;

qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish

dalolatnomasi imzolangandan keyin 3 kunlik muddatda

qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning

1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 4 hafta ichida obyektni qabul qilib olish.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

## 7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

## 9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi: Buyurtmachi:

"NURMATOVDESIGN STROY" MCHJ
Hisob-kitob raqami
20208000405545650001
STIR 3097026[illegible]
J.G'afurov
*(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)*

Dehqonobod tuman xalq ta'limi bo'limi
Hisob-kitob raqami
1000228[illegible]0[illegible]09[illegible]10007[illegible]43
STIR [illegible]
B.Yusupov
*(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)*

| | | |
|---|---|---|
| | Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | BAXTIYOR YUSUPOV MAVLONOVICH |
| | Imzolangan sana | 15 сен 2022 12:43 |
| | Hujjat kodi | BS0286214258 |
| | Hulosa kodi | LW5065550308 |

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tuman Dehqonobod tumani Xalq ta'lim bo'limiga qarashli 93-sonli maktab binosini joriy ta'mirlash ishlarini loyixa smeta hujjatlari asosida bajarish uchun tuzilgan pudrat shartnomasiga

## HUQUQShUNOS XULOSASI

15-sentyabr 2022-yil Dehqonobod tuman

Men Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsul'ti M.Hayitov O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunining 21-moddasiga asoslanib, Dehqonobod tuman Xalq ta'lim bo'limi va "NURMATOV DESIGN STROY" MCHJ o'rtasida tuzilgan yigirma million so'mlik shartnomasini yuridik ekspertizadan o'tkazib, quyidagilarni,

**Aniqladim:**

Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 631-655-moddalari talabiga, shuningdek, ushbu kodeksning 666-685-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunining talablariga to'liq javob beradi. Ushbu turdagi shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 631-655-moddalari hamda 666-685-moddalari bilan tartibga solinadi. Shartnoma matni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va boshqa me'yoriy xujjatlar talabiga mos keladi.

**Xulosa**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuristkonsul'ti: M.Hayitov

**Деҳқонобод туман халқ таълими бўлимининг**
**Танлов баёни № 6**

13 . 09. 2022 йил Қорашина шаҳарчаси

Комиссия раиси: М.Ибрагимов
Комиссия аъзолари: Х.Одинаев
Д.Дўсанов
У.Хазратов
Б.Юсупов

**Кун тартибидаги масала.**

Деҳқонобод туман халқ таълими бўлимига қарашли 93 мактаб биносини жорий таъмирлаш ишларини бажариш мақсадида қурилиш ташкилотини танлаб олиш ва биносини жорий таъмирлаш ишларини бажариш тўғрисида.

**Кун тартибида куриладиган масала:**

Деҳқонобод туман халқ таълими бўлимига қарашли мактаб биносини жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун 2022 йил сентябр ойида шартнома килиш ва шартномани тасдиклаш туғрисида.

Комиссия танлов конкурсга қатнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб, 2 та хусусий корхона қатнашаётганлигини эълон қилди. Улар куйидагича:

Танлов конкурс буйича 2022 йил 8 сентябр кунида лот № 141205 сонли протокол эълон куйилгандан кейин 2 та ташкилот узини таклифлари билан катнашди ва энг юкори балл « NURMATOV DESIGN STROY MCHJ олди ва 2 кун мухокамада куйилди хамда бошка эътирозлар булмагандан кейин " NURMATOV DESIGN STROY MCHJ билан шартнома тузилди.

**ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОРҚИЛАДИ:**

1. «**NURMATOV DESIGN STROY MCHJ** ғолиб деб топилсин.
2. «**NURMATOV DESIGN STROY MCHJ** корхонаси томонидан тавсия этилган мактаб биносини жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун шартнома тузилди ва курилиш ишлари бўйича мутахасис М.Ибрагимовга юклатилсин .
3. Ушбу баённома қарорини бажарилишини назорат қилиш бош хисобчи Х.Одинаевга юклатилсин.

АЪЗОЛАРИ:

М. Ибрагимов
Х. Одинаев
Д.Дўсанов.
У.Хазратов
Б.Юсупов

Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими бюджетларининг ғазна ижроси қоидаларига 8-ИЛОВА

15.09.2022 даги

**NURMATOV DESIGN STROY MCHJ ва Дехконобод туман ХТБ (Центр) ўртасида 20000000,00 сўм умумий суммага тузилган 85-4-57-ХТ/2022 - сонли шартномага**

## ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 075

Шахсий ғазна хисобварак 100022860102127092100075143

сўмда

| 2022 й. ойлар номи. | Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди) | | | Жами |
|---|---|---|---|---|
| | 4239000 | | | |
| Январь | | | | |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | 20 000 000,00 | | | 20 000 000,00 |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |
| **Жами йил бўйича** | **20 000 000,00** | | | 20 000 000,00 |

Жами 20000000,00 сўм — Йигирма миллион сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 6000000.00 сўм ёки 30.00%*** шартноманинг умумий суммасидан ______% ***20 ________________ ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига шартнома билан тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига ______% жорий ойнинг ____ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари ________________ (имзо) Юсупов Бахтиёр ... Ф.И.Ш.

М.Ў.

Буюртмачи бош бухгалтери ________________ (имзо) Олимов Хайрулла ... Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг ходими қабул қилди ________________ (имзо)

Буюртмачи ... қабул қилди ________________

« » ________ 20 й.